

**TILSHUNOSLIKDA KONSEPT OLAMNING LISONIY MANZARASI  
MAHSULI SIFATIDA**

*D.F.Sharofova*

*SamDChTI Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti “Til va tarjima”  
kafedrasi stajyor-o'qituvchisi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada konsept hodisasining aynan qiyosiy tipologik tilshunoslikda o'rganilganlik darajasi va unga berilgan ta'riflar o'rganib chiqilgan va tahlil qilingan. Konsept bevosita lisoniy hodisa ifodalanishi bo'lib, u milliy mentalitet, til, dunyoqarash, lisoniy va aqliy tafakkur va madaniyat bilan bog'liq ravishda o'rganilishi kerak. Konseptni to'g'ri tahlil qilish uchun ushbu ko'rsatkichlar juda muhim bbuo'lib, madaniyat orqali milliy o'ziga xoslikni, lisoniy tafakkur orqali inson fikrlarini, aqliy tafakkur orqali insonning ongida aks etgan dunyo manzarasini ko'rish mumkin.*

***Kalit so'zlar:** olamning lisoniy manzarasi, konsept, tilshunoslik, lingvokulturologiya, dunyoqarash, ong, tafakkur, til. madaniyat, milliylik, qadriyatlar, fikr.*

Til insonning muloqot vositasi bo'lib, milliy va ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Bir tomondan til insonning dunyo to'g'risida bilim va ko'nikmalar orttirishi uchun zarur vosita bo'lsa, ikkinchi tomondan, u shaxsiy va ijtimoiy tajriba va dunyoqarashni anglatadi. Til milliy xususiyatni namoyon etadi, madaniy va etnik qadriyatlarni o'zida saqlaydi. Shu sababli keyingi yillarda tilshunoslarning aksariyati til va madaniyatning o'zaro ta'siri muammosini o'rganish bilan shug'ullanadi. Obrazlarni o'rganish ham o'z o'rnida aynan lisoniy va aqliy ong orqali amalga oshadi. Demak, konsept nafaqat leksik birlik, balki butun bir insonning hayot faoliyatida mujassam bo'lgan bir necha xususiyatlarning asosiy obyektidir.

Turli til vakillarining madaniyati, tafakkuri, dunyoqarashi doirasida turlicha shakllanish tendensiyasi mavjuddir. Shaxsning tafakkur va dunyoqarash u dunyoga kelgan jamiyatda mavjud urf-odatlar, madaniyat asosida shakllanadi, uning dunyoni idrok etish jarayoni ham shu omillarga mos ravishda rivojlanadi. Shaxsning olamni, obyektlarni qay tarzda idrok etishi, muayyan kognitiv prinsiplarga asoslanadi. Demak, konsept ana shu kognitiv tamoyilning asosini tashkil etadi.

Kognitiv tishunoslikda konseptni tahlil qilar ekanmiz professor Sh.S.Safarovning ishlarini ko'rib chiqish muhimdir. O'zbek tilshunos olimi Sh.S.Safarovning ta'kidlashicha "Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash, hamda uzatish, umuman til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikosi sifatida tafakkur bilan bog'lab chuqur tadqiq etishdir

"Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushunchaning tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna- konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olinishi"ni ta'kidlaydi." [Safarov Sh.S. 91b.]

Ushbu o'rinda O'.Q. Yusupovning konsept haqidagi fikrlarini tahlil qilsak: konsept "tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizda shakllangan bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni baholashlardir. Konsept tushunchasini aysbergga (muzlik) o'xshatish mumkin.

Agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir" (Yusupov 2011: 49). Bu fikr orqali aysbergning suvdan chiqib turgan qismi uning suvostidagi qismiga nisbatan anchayin kichikligini bu esa aysberg singari biror so'zni konseptual tahlil qilayotganimizda, avval, uning tilda paydo bo'lgan voqelanishi tushuncha deb qaraladigan bo'lsa, chuqurroq kognitiv talqin qilinganda uning yanada ko'proq mazmuni namoyon bo'laveradi.

Demak, konsept so'zni shunchaki anglatgan ma'nosiga qarab emas, uning bilan bog'liq holda ifodalanadigan barcha tushunchalarni, inson idroki bilan bog'liq jihatlarini, lingvomadaniy ko'rinishlarining kognitiv talqini hisoblanadi.

Sh.N. Mahmudov "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning

ifodalanish muammolariga juda kata e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan rossiyadagi tilshunoslikda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganligini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyakarining juda kata qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan" deb aytadi. (N.Mahmudov )

Albatta professorning fikri juda to'g'ri masalaga qaratilgan, chunki konsept hozirgi kunga kelib tilshunoslikning eng muhim o'rganish obyektiga aylanib ulgurdi. Konsept haiqda bildirilayotgan turli qarash va fikrlarni tahlil qilar ekanmiz, ularning oxiriga yetish bir qadar mushkul vazifadir. Uning tadqiqi hali bir necha yillar davomida yana yangidan-yangi mulohaza va fikrlarni vujudga keltirishi aniq.

A.E.Mamatovning fikriga ko'ra: "Olamning lisoniy manzarasi" va "konsept" tushunchalarini o'rganishda ikkita o'lchovni: til materialini tanlash va uni interpretatsiya qilishni shart qilib olish o'zini oqlaydi. "Konsept" termini hozirgi fanda eng faol terminlardan biri, ammo uning mazmuni yetarli darajada aniqlanmagan". (A.E.Mamatov 2019: 58). Olimning fikricha asosiy ikki o'lchov ya'ni ma'lum bir til materialini tanlash va uni amalda nimanidir aks ettirish uchun mahorat bilan qo'llash aynan konseptni ifodalaydi. Garchi "konsept" atamasini tadqiq etayotgan ilmiy ishlar va harakatlar mavjud bo'lsa-da, haligacha bu terminning aniq izohi to'la aks ettirilmaganini ta'kidlaydi.

Mehmondo'stlik konsepti haqidagi zamonaviy qarashlar ichida tillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, ular o'rtasidagi mental lingvistik yondashuv aynan asosiy kompleks yondashuv bo'lib, fikrlash- bu dinamik, anglash esa to'plangan bilim ko'nikmalar asosida baholovchi qiymatga ega, til esa muloqot va instrumental vositadir.

V.A.Maslovaning ta'kidlashicha, til, madaniyat, etnosning o'zaro va individual tarzdagi bir-biriga bog'liqligi muammosi, uzviy muammodir, uning yechimi esa faqatgina bir necha ilmiy sohalarda: falsafa, sotsiologiyadan tortib etnolingvistika va lingvokulturologiyagacha. Masalan, etnik lingvistik fikrlash, bevosita lingvistik falsafa masalasidir, madaniyat, etnik guruhning o'zaro bog'liqligi

va o'zaro bog'liqligi muammosi psixolingvistikaning o'rganadi aspektidir.

D.S. Lixachev “konsept”ga shunday ta’rif beradi: “ Konsept shaxsning tushunishi, mazmundorlikning oz miqdorda obyektiv ma’no va tushuncha tarzida namoyon bo’lishi”. (Lixachev D.S. 1993; 281). Olim “konsept”ga berilgan bu ta’rifida ma’no va tushuncha nuqtayi nazaridan qaraydi.

Demak xulosa sifatida quyidagilarni sanab o' Kelib chiqish mohiyatiga ko'ra konsept falsafiy, madaniy, psixolingvistik va kognitiv turlarga bo'lish mumkin. Madaniyatshunoslik paradigmasi doirasida kontseptsiya, bizning fikrimizcha, milliy konseptlarning jamlanmasidir. Chunki konsept u yoki bu fikrni anglatishda inson tafakkuri mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Lingvokulturologiya - bu bir nechta gumanitar fanlarning chorrahasida joylashgan nisbatan yangi bilim sohasi, shu jumladan madaniyatshunoslik, tilshunoslik, psixolingvistika, lingvistik etnografiya va boshqalar. Bugungi kunda lingvokulturologik tadqiqotlarning dolzarb ekanligi va globallashtirish jarayoni ushbu sohaning yanada chuqur va aniq tadqiq qilinishini talab qilmoqda.

Madaniyatshunoslikda konsept insonning ma'naviy sohasidagi madaniyatning asosiy elementi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tushunchalarning nisbati shunchalik rang-barang, juda keng va o'z navbatida so'zlarning ekspressiv shaklining imkoniyatlari shunchalik xilma-xilki, kontseptsiyaning barcha nyuanslari aniq ifodalangan.

Madaniyat tarixan til bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ma'lum bir leksik birlik mazmun bildirishi orqali madaniy mohiyatni ifodalashi mumkin. Aynan shuning uchun XIX asrdan boshlab olimlar tilga nafaqat aloqa va atrofdagi dunyoni tushunish vositasi, balki millatning o'ziga xos madaniy kodi sifatida ham qarashni boshladilar.

Konsept dunyoning lisoniy tasvirida, shaxsning ongida aks etuvchi dunyoqarashning mahsulidir, bu dunyoqarash o'z o'rnida madaniyat va tilning o'zaro bog'liqligi asnosida shakllanadi.

Shaxsning kontseptual tizimi o'ziga xos tasvir, hissiy va assotsiativ elementlar bilan boyitilgan. Kontseptsiyaning tarkibiy qismi sifatida lingvistik tarkib bir butun

sifatida ifodalanishi mumkin, u o'z ramziga ega bo'lishi mumkin. Tarkib, kontseptual modellar singari, haqiqatni o'zida mujassam etish vositasidir, ammo ular buni boshqacha qilishadi.

Konsept- kognitiv tilshunoslikda insonning aqliy va hissiy fikr ifodalash jarayoning mahsuli sifatida vujudga kelib, uning mana shu ikki asosiy element vositasida dunyoqarashini ifodalashga xizmat qiladi.

Konsept shakllanishiga ko'ra umumiy va milliy ko'rinishdanamoyon bo'ladi. Umumiy shaklda u umuminsoniy bilimlar asosida namoyon bo'lsa, milliy shaklda ma'lum bir xalqning madaniyati va dunyoqarashini namoyon etishi mumkin.

Konsept- ma'no, mazmun bildiruvchi so'z, uni tushunchadan farqlash muhimdir. Chunki "konsept" keng mazmunni ifodalab, mazmun bildiruvchi tushunchalarni o'zida aks etgan birlik hisoblanadi. Tushuncha esa nafaqat shaxs ongidagi so'zlarning leksik ma'nolari, balki milliy, madaniy-tarixiy va shaxsiy tajribalari asosida ham shakllanadi.

Konsept inson ongining tili, ya'ni atrofda namoyon bo'luvchi barcha manzaralarning shaxsning ongida aks etishi va uning tilda namoyon bo'lishidir. u inson xotirasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib ongda aks etgan barcha tasvirlarning lisoniy shaklda namoyon bo'lishidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mamatov A.E.- Zamonaviy lingvistika-Toshkent.: "Noshir" nashriyoti, 2019:
2. Mahmudov N. – Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...//O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2012
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya: Ucheb.posobiye.-M: Academia, 2001.
4. Lixachev D.S.-Konseptosferaz russkogo yazika/ seriya literature i yazika.T.52\_M, 1993.
5. Safarov Sh.S. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax: Sangzor, 2006.
6. Yusupov O'.Q. –Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturologiya atamaları xususida- Toshkent 2011.